

QON BOSIMINI NAZORAT QILISHDA MOBIL ILOVALAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Karimova Nilufar Oybek qizi

Ro‘ziboyev San’atbek Odilbek o‘g‘li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali O‘zbekiston, Xorazm viloyati, Urganch shahri,

Al-Xorazmiy ko‘chasi 28-uy Tel: +998 (62) 224-84-84

E-mail: info@urgfiltma.uz

Tadqiqotning dolzarbligi. Bugungi kunda arterial gipertoniya dunyo aholisining katta qismini qamrab olgan surunkali kasalliklardan biri hisoblanadi. Kasallikning sekin rivojlanishi va ko‘p hollarda belgilersiz kechishi uni o‘z vaqtida aniqlash va nazorat qilishni murakkablashtiradi. Rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar – mobil ilovalar, smart-soatlar, sog‘liq monitoringi uchun mo‘ljallangan platformalar – ushbu muammoni hal qilishda yangi imkoniyatlar ochmoqda.

O‘zbekiston aholisi orasida ham gipertoniya bilan kasallanish holatlari yil sayin ortib bormoqda. Biroq, aholi orasida qon bosimini doimiy nazorat qilish odati yetarli darajada shakllanmagan. Shunday sharoitda mobil sog‘liqni saqlash vositalari bemorlar va vrachlar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash, kasallikni erta aniqlash va kompleks nazorat qilish uchun samarali yechim bo‘la oladi. Shu bois, qon bosimini monitoring qilishda raqamli texnologiyalar va mobil ilovalarning roli ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Qon bosimini nazorat qilishda mobil ilovalar va raqamli texnologiyalarning samaradorligini tahlil qilish hamda ularni O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: arterial gipertoniya kasalligini nazorat qilishda mavjud muammolarni tahlil qilish; mobil ilovalar va raqamli qurilmalarning asosiy funksiyalari va imkoniyatlarini o‘rganish; raqamli texnologiyalar yordamida qon bosimi monitoringining samarali usullarini aniqlash; O‘zbekiston sharoitida bunday texnologiyalarning qo‘llanilishiga doir amaliy tajribalarni tahlil qilish; gipertoniya profilaktikasi va nazoratida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu tadqiqotda qon bosimini nazorat qilishda mobil ilovalar va raqamli texnologiyalar imkoniyatlari milliy sog‘liqni saqlash amaliyoti nuqtai nazaridan ilk bor tizimli tarzda tahlil qilinmoqda. Zamonaviy mobil ilovalar, aqlli soatlar va raqamli monitoring qurilmalarining gipertoniya kasalligini

boshqarishdagi o‘rni tibbiy va texnologik yondashuvlar asosida chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida bu texnologiyalarning qo‘llanilish samaradorligi, aholining ularga bo‘lgan munosabati va ulardan foydalanishdagi mavjud to‘siqlar aniqlanib, amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimida raqamli yechimlarni keng joriy etishga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida qon bosimini nazorat qilishda qo‘llanilayotgan mobil ilovalar va raqamli qurilmalar turlari tahlil qilindi. Ularning asosiy funksiyalari – qon bosimi ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish, avtomatik ogohlantirishlar yuborish, sog‘liq haqidagi statistikani yuritish, vrach bilan masofaviy aloqa o‘rnatish – gipertoniya kasalligini nazorat qilishda muhim vosita ekani aniqlandi. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida ushbu texnologiyalar hali keng joriy qilinmagan bo‘lsa-da, ularni qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoj va texnik imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar yordamida gipertoniya rivojlanishini erta bosqichda aniqlash, asoratlarni xavfini kamaytirish va davolanishga rioya qilishni oshirish mumkinligi asoslab berildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida gipertoniyani samarali nazorat qilish uchun sog‘liqni saqlash tizimida mobil ilovalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish, ularning aholi orasida keng targ‘ib qilinishini ta‘minlash, tibbiyot xodimlarini bu texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatish, shuningdek, ushbu qurilmalar yordamida muntazam monitoring olib borish tizimini yaratish tavsiya etiladi.